

Parmonova Shahnoza Ismatulloyevna

Navoiy viloyati Karmana tumani 29-maktabining biologiya fani o'qituvchisi

Ro'ziyeva Ma'mura Islomovna

Navoiy viloyati Karmana tumani 29-maktabining fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda axborotdan foydalanish va axborot madaniyati haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Informatika, axborot texnologiyalari, Shaxsiy kompyuter (ShK), axborot-kommunikatsiyalar.

«Informatika va axborot texnologiyalari» yildan yilga kishilik faoliyatining turli soxalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad - jamiyat va inson butun hayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarni hal etishdir. Jamiyatni axborotlashtirish deganda inson faoliyatining barcha ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan sohalarida boyitilgan bilimlar, ishonchli axborotlar bilan to'liq va o'z vaqtida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan va o'z vaqtida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni hamma joylarda tadbiq etish tushuniladi. Axborot xuddi an'anaviy resurslar kabi izlab topish, tarkatish mumkin bo'lgan resursga aylandi. Ushbu resursning foydalaniladigan umumi hajmi kelgusida davlatning strategik imkoniyatini, shuningdek mudofaa qobiliyatini ham belgilab beradi. Shunday qilib axborot resurslari axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy qismi bo'libgina kolmay, balki milliy daromad manbai sifatidagi tovar hamdir. Shaxsiy kompyuter (ShK) larning ommaviy ravishda ishlab chiqarilishi ayniqsa axborot texnologiyalari sanoati uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. ShKlar inson faoliyatining deyarli barcha soxalariga kirib bordi va mutaxassislarining bilimlar manbaiga kirib borishi hamda uni bevosita qayta ishslash jarayonida qatnashish imkoniyatini kengaytirdi. Informatik va axborot texnologiyalari rivojlanishi bevosita iqtisodiy ob'ektlarning axborot tizimlaridan foydalanishi bilan bog'lik. Zamonaviy axborot texnologiyalari rahbarlarga, mutaxassislarga, texnik xodimlarga axborotni qayta ishslash va qarorlar qabul qilishda hamda to'liq va ishonchli bo'lgan zamonaviy axborot tizimini yaratishda ko'mak beradi. Milliy iqtisodimizga axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarining kirib kelishi, ma'lumotlar bazalarida jamg'arilgan axborotlarning xavfsizligini ta'minlash muammosini keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng uning oldida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun, madaniy va ma'naviy yangilanish uchun keng yo'llar ochildi. Jamiyatimizning turli sohalari rivojlangan bugungi kunda axborotlarning sohalararo, tashkilotlararo almashinuvi masalasi yangi-yangi texnika va texnologiyalar qo'llash zaruriyatini tug'dirmoqda. Respublikamiz mustaqilligi va

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

uning jahon hamjamiyatidagi obro`yining ortib borayotganligi, axborotlarning nafaqat davlatimiz ichida, balki dunyodagi boshqa davlatlar bilan almashinuvi masalasini qo`ymoqda. Bu axborotlar respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yuksaltirishga qaratilgan.. Axborot (informatsion) madaniyati umumiy madaniyatning bir qismi sifatida insonni axborotlar oqimiga to`g`ri yo`l topishi uchun xizmat qiladi. Axborot madaniyati insonning ijtimoiy tabiatini bilan bog`liq bo`ladi. U insonning ijodiy qobiliyati mahsuli bo`lib, quyidagilarda o`z aksini topadi: - texnik qurilmalar (telefon, ShK lar va kompyuter tarmoqlari) ni ishlatish ko`nikmasida; - o`z faoliyatida kompyuter axborot texnologiyalarini ishlatish qobiliyatida;

- turli manbalar (davriy nashrlar va elektron kommunikatsiyalar) dan axborotlarni olish, uni kerakli shaklda ko`rsatish, hamda samarali ishlatish mahoratida va hokazo. Axborot madaniyati informatika, kibernetika, axborot nazariyasi, matematika, ma'lumotlar bazasini loyihalash nazariyasi va boshqa fanlarning bilimlariga tayangan holda paydo bo`ladi. Axborotlashgan (informatsion) jamiyat- faoliyat ko`rsatuvchilarning ko`pchiligi axborotni, ayniqsa uning oliy shakli bo`lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan band bo`lgan jamiyatdir. Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo`lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matinlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo`lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalg etib bormoqda. Ayniqsa bu ta'sir doirasidan o'smir yoshlar ham yo'q emas. Bu borada mutaxasislarning so'zlari quydagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog'idagi ijobiylilik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushohada, taxlil qilish qobiliyati va xotiraning o'tkirlilik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lмаган va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinnidir. Bundan ko'rinish turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo`lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda. Axborot madaniyati umuman madaniyatning ajralmas qismi sifatida insonning ijtimoiy tabiatini, uning atrofdagi voqelik bilan aloqalarining muhim tomonidir. Hozirgi vaqtida axborot madaniyati muammosi nafaqat ilmiy, balki falsafiy adabiyotda ham tobora ko'proq muhokama qilinayotgan mavzudir, bu shubhasiz uning dolzarbligidan dalolat beradi. "Axborot madaniyati" tushunchasi yigirmanchi asrning o'rtalarida "axborot portlashi", "axborot jamiyati" va "axborot sivilizatsiyasi" kabi tushunchalar bilan

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

bog'liq holda paydo bo'ldi. Axborotlashgan jamiyat haqida olimlar turlicha fikrdalar. Yapon olimlarining hisoblashlaricha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot madaniyatinden foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Jamiyatni rivojlantirishda harakatlantiruvchi kuch moddiy mahsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo`lmog`i lozim. Moddiy mahsulotning esa tannarxi ancha qimmat bo`ladi.

Shunday ekan qimmatli bo`gan axborotlarni ishonchli va asosli manbalar orqali o`zlashtirishimiz har tomonlama muhim ahamiyatga ega.